

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA “QADRIYAT” MAZMUNIIY MAYDONIGA OID MAQOLLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Zaripov Botir Pulatovich,

NavDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maqollarning nutqdagi funksional-pragmatik tabiati va diskursiv imkoniyatlari tadqiq etilgan. Paremiologik birliklarning tarkibiy muqimligi hamda muloqot tizimida tayyor andoza (stereotip) sifatidagi ommabopligi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqollarning vaziyatga xoslanishi, interpretatsiya jarayonining lingvistik asoslari va bahslarda asoslovchi dalil sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqollar yordamida amalga oshuvchi maslahat, ogohlantirish kabi evfemistik muloqot strategiyalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** paremiya, kommunikativ tilshunoslik, nutq andozasi, kontekstual ma’no, diskurs, illokativ akt, dalillash, evfemiya, publitsistik matn.

**Abstract.** This article studies the functional-pragmatic nature and discursive possibilities of proverbs in speech. The structural stability of paremiological units and their popularity as ready-made templates (stereotypes) in the communication system are shown. The situational adaptation of proverbs, the linguistic foundations of the interpretation process and their importance as a supporting argument in arguments are highlighted. Also, euphemistic communication strategies such as advice and warning implemented with the help of proverbs are analyzed.

**Keywords:** paremiology, communicative linguistics, speech template, contextual meaning, discourse, illocutionary act, argumentation, euphemism, journalistic text.

**Аннотация.** В данной статье исследуется функционально-прагматическая природа и дискурсивные возможности пословиц в речи. Показана структурная устойчивость паремнологических единиц и их популярность в качестве готовых шаблонов (стереотипов) в системе коммуникации. Подчеркиваются ситуативная адаптация пословиц, лингвистические основы процесса интерпретации и их важность как аргумента в аргументации. Также анализируются эвфемистические коммуникационные стратегии, такие как советы и предупреждения, реализуемые с помощью пословиц.

**Ключевые слова:** паремнология, коммуникативная лингвистика, речевой шаблон, контекстуальное значение, дискурс, иллокутивный акт, аргументация, эвфемизм, журналистский текст.

**Kirish.** “Qadriyat” tushunchasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya va lingvokulturologiya kabi ko‘plab ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotining markazida turadi. Zamonaviy tilshunoslikda, ayniqsa, lingvoaksiologiya rivoji bilan qadriyatlarining tilda aks etishi, shakllanishi va funksiyalari chuqur o‘rganilmoqda. Til, nafaqat qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita, balki ularni shakllantiruvchi va saqlovchi, keyingi avlodga yetkazuvchi va tarqatuvchi faol mexanizm hamdir. Mazkur maqolada “qadriyat”ga oid maqollarning pragmatik xususiyatlari, ya’ni til foydalanuvchilari tomonidan qadriyatga oid maqollarning nutqiy jarayonda, ijtimoiy hayotda qanday qo‘llanilishi, qanday lingvistik ta’sirlarni yuzaga keltirishi va ularning turli kontekstga bog‘liqligi masalasi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Pragmatikani tilshunoslikning boshqa sohalari, masalan, semantika, sintaksis va fonetikadan ajratish, uning unikal xususiyatlarini, ya’ni kommunikativ kontekst, ijrochi va qabul qiluvchi o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, ma’no va kontekst o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni

aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Aksiologik nuqtayi nazardan, pragmatika va aksiologiya (qadriyatlar nazariyasi) orasidagi aloqa, til vositasida insonlarning ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari qanday ifodalanishiga oid masalalarni tadqiq etish imkonini beradi.

“Qadriyat” mazmuniy maydonini o‘rganishda pragmatik yondashuv, qadriyat leksemalarining nafaqat leksik-semantik ma’nolarini, balki ularning nutqiy vaziyat, muloqot ishtirokchilari va madaniy kontekst bilan o‘zaro aloqasini ham tahlil qilishga imkon beradi. “Qadriyat” tushunchasiga oid birliklar til tizimida ma’lum bir semantik maydonni hosil qiladi. Pragmatik yondashuv bu maydon birliklarining nutqda qanday faol holatga kelishini, qanday ma’no yuklamalarini olishini va qanday nutqiy harakatlarni bajarishini o‘rganadi.

**Adabiyotlar tahlili.** “Zamonaviy tilshunoslikda, matn o‘zida kontekst va nutq vaziyatini ifodalagan mazmun va shakl birligi; turg‘un, tayyor mahsulot. Diskurs esa kechayotgan muloqot jarayonidir. H.Haberland matnni turli joyda, turli paytda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan predmet, diskursni esa aniq zamon va makonda kechayotgan hodisa deb hisoblaydi. Matndan cheklanmagan miqdorda foydalanish mumkin, uni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish imkoni bor, diskurs hozirgina kechayotgan jarayon u har safar qayta yaraladi”. Bu jarayon, ayniqsa, xalq maqollarida yaqqol seziladi. Ma’lumki, maqollar xalqning ijtimoiy ahvoli, sinov tajribasi, hayotiy tajribasi, ilmiy tajribasi asosida yuzaga keladi. Ular bevosita xalq madaniyati, ma’naviyati va qadriyatiga oid bo‘ladi. Qadriyatga oid maqollarning nutqiy xoslanishlarida, ayniqsa, siyosiy, publitsistik va diniy matnlarida qanday qo‘llanilishini o‘rganish muhim. Kundalik muloqotlarda qadriyatlarining qanday ifodalanishi, tinglovchi tomonidan qanday qabul qilinishi va muloqotga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish jarayoni bevosita xalqning qadriyatlariga bog‘liq. Masalan, “Itning ori kelsa, suyakka ham qaramas” maqoli o‘zining pragmatik xususiyatlari bilan insonlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi muhim jihatlarni aks ettiradi. Ushbu maqol “Or-nomus va nomussizlik” mavzuiy guruhiga oid bo‘lib, ilmiy va tizimli tahlil nuqtayi nazaridan, oddiy, lekin kuchli tasviriy ma’noga ega. “It” va “suyak” hayvonlar va ularning tabiati bilan bog‘liq harakatlarni ifodalaydi. Maqol tarkibidagi “ori kelish” iborasi esa itga bevosita aloqasi bo‘lmasa-da, insonga xos kuchli hissiyotlarni, or-nomus ehtirosni anglatadi va bu holat insonning biror narsaga bo‘lgan qiziqishi yoki ehtiyoji borligini ko‘rsatadi. Pragmatik jihatdan ushbu maqol ko‘pincha ma’lum qaror qabul qilish jarayonida yoki o‘zaro munosabatlarda qo‘llaniladi. Shaxsiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan, “Itning ori kelsa, suyakka ham qaramas” maqoli insonlarning ichki ehtiyojlari va maqsadlariga ishora qiladi. Bu maqol shuni anglatadiki, insonlar ba’zida o‘z shaxsiyatini himoya qilish uchun boshqa narsalarga e’tibor bermasliklari mumkin. Ammo ularga ishora qiluvchi vositalardan foydalanadi. “Ishora vaziyatida so‘zlovchi o‘z maqsadini yashirmaydi, balki tinglovchiga ishorani tushunish imkoniyatini yaratishga harakat

qiladi". Bunday holatlar shaxsiy qarorlar va tanlovlar jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning ehtirolari va maqsadlari ularning hayotidagi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. "Pragmatik faoliyatni o'rganish rivojlanishi bilan tilshunoslar maqollarning nutqdagi dinamik xususiyatlariga e'tibor bera boshladilar. Diskursiv-pragmatik yondashuv tilni yangi nuqtayi nazardan o'rganishga imkon beradi, bu esa muvaffaqiyatli o'zaro ta'sirni amalga oshirish, so'zlovchining manfaatlarini ilgari surish va boshqa kommunikativ maqsadlar uchun lingvistik birliklarning ishlashini tahlil qilish nuqtai nazaridan muhimdir. Nutqdagi maqollar kommunikativ birlik sifatida ifodalovchi kuchga ega bo'lib, ular nutq akti sifatida xizmat qilishi va so'zlovchining turli niyat ma'nolarini (masalan, maslahat berish, rag'batlantirish, qoralash, rad etish, rozilik bildirish va boshqalar) ifodalashi mumkin. Shunday qilib, maqollar real vaziyatga qarab turli pragmatik ma'no kasb etadi".

**Muhokama va natija.** "O'zbek xalq maqollari" kitobida quyidagi maqollarning mehmondo'stlik bilan bog'liq, turli vaziyatlarga xoslangan maqollari mavjud. Ular turli to'g'ridan to'g'ri yoki pragmatik ma'nolarda qo'llanadi.

**Mehmonlarning tashrif buyurishi bilan bog'liq maqollar:** Kelish mehmondan, ketish mezbondan. Kelmoq ixtiyor bilan, Ketmoq ijozat bilan.

O'zbek xalq maqollarining ma'nosi, ularning xalq hayoti bilan bog'liqligi, milliy qadriyatlarga bevosita aloqadorligi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Xususan, mehmondorchilikning har bir harakati bilan bog'liq jarayonlarga xos maqollar yuzaga kela boshlagan. Ular "jonli" hayot tarzi bilan yuzaga kelgan. Ularning ma'nosi o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanishi kontekstda yuzaga keladi. Masalan, "Kelish mehmondan, ketish mezbondan" maqoli va uning bilan bog'liq so'z va birikmalarning yuzaga kelishi bunga misol. Mazkur maqol o'zbek xalq og'zaki ijodining eng ko'p qo'llaniladigan va chuqur ma'no kasb etgan maqollaridan biridir. Ushbu maqolning denotativ (lug'aviy, to'g'ridan to'g'ri) va pragmatik (qo'llanilish kontekstiga bog'liq, yashirin) ma'nolari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. "Kelish mehmondan, ketish mezbondan" maqoli o'zining lug'aviy ma'nosiga ko'ra, ikki qismdan iborat bo'lib, har biri alohida tushunchani anglatadi. "Kelish mehmondan" birikmasi mehmonning xohishi va qaroriga ko'ra tashrif buyurishini anglatadi. Ya'ni, mehmonning uyga kelish vaqti, tashrifining boshlanishi to'liq uning ixtiyorida ekanligini bildiradi. Uy egasi mehmonni majburan chaqira olmaydi, mehmon o'zi kelishga qaror qiladi.

"Ketish mezbondan": Bu ibora esa mehmonning uy egasi (mezbon) tomonidan ko'rsatilgan e'tibor, mehmondo'stlik, shuningdek, uning xatti-harakatlari va munosabati tufayli ketishini anglatadi. Bu yerda ketish bevosita mezbonning "buyrug'i yoki istagi bilan emas, balki mezbonning mehmonni kuzatishi, unga uzatilgan izzat-ikromning nihoyasiga yetishi bilan, yoki mehmonlar bilan ko'proq vaqt birga bo'lish jarayoni bilan bog'liq. Denotativ ma'noda maqol mehmon va mezbon o'rtasidagi ijtimoiy "roller"ning

taqsimlanishini ko'rsatadi. Mehmon tashrifning boshlanishiga mas'ul bo'lsa, mezbon tashrifning yakunlanishiga bilvosita javobgar va sababchi hisoblanadi.

“Kelish mehmondan, ketish mezbondan” maqolining pragmatik ma'nosi uning qanday sharoitda, kim tomonidan va qanday maqsad bilan qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Maqolning asosiy pragmatik funksiyasi ko'pincha bilvosita maslahat berish yoki nozik tarzda ogohlantirish hisoblanadi. Misol uchun, agar mehmon mehmondo'stlik qoidalariga zid ravishda uzoq qolib ketsa, mezbon to'g'ridan to'g'ri “endi keting, ko'p qolib ketdingiz” demaydi. Bu yerda illokutiv kuch “keting” emas, balki “mehmondo'stlikning ham o'z qoidalari bor, uning yakunlanishi ham mezbonning g'amxo'rliigi bilan bog'liq, buni hisobga oling” degan ma'nodagi ogohlantirishdir. Maqol ijtimoiy me'yor va odob-axloq qoidalarini mustahkamlovchi bayonot sifatida ham xizmat qiladi. U mehmon va mezbon o'rtasidagi munosabatlarda qanday xulq-atvor me'yorlari mavjudligini eslatib turadi. Maqolning tinglovchiga (ayniqsa, mehmonga) ta'siri uning ijtimoiy odob-axloq qoidalarini tushunishiga va o'z xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Mehmon bu maqolni eshitganda, o'zining uzoq qolib ketganidan uyalish hissi paydo bo'lishi yoki mezbonning sabr-toqati tugayotganini tushunishi mumkin. Mezbonlar uchun esa bu maqol, ularning mehmondo'stlik majburiyatlari va shu bilan birga mehmondo'stlikning chegaralari borligini eslatuvchi dalil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqol o'zbek xalqining chuqur ildiz otgan mehmondo'stlik (mezbonlik) madaniyatini aks ettiradi. Bu madaniyatda mehmonga nisbatan yuksak hurmat va e'zoz ko'rsatiladi, uni "Xudoning mehmoni"(Mehmon atoyi xudo maqolini eslaylik) deb atashadi. Shu bilan birga, mehmondo'stlikning ma'lum bir chegaralari borligini ham ko'rsatadi. O'zbek madaniyatida, ayniqsa nozik vaziyatlarda, to'g'ridan to'g'ri, buyruq ohangidagi(buyruq mayllarsiz) nutqdan qochish odat tusiga kirgan. Ushbu maqol esa mezbonlarga o'z noroziligini yoki istagini bilvosita va xushmuomalalik bilan ifodalash imkonini beradi. Bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikni saqlashga xizmat qiladi.

**Mehmonlarning ulug'lanishi bilan bog'liq maqollar:** Mehmon joyi ko'z ustida. Ma'lumki, inson ta'nasidagi eng muhim tana azosi (aslida hamma azo ham asosiy) ko'z hisoblanaib, u uy egasiga mehmonni qadrlash, unga eng yaxshi joyni, eng yaxshi munosabatni taqdim etish hamda hurmat hissini namoyon qilishga aytiladi. “Ko'z ustida” iborasi eng yuqori, eng aziz, eng qadrlil o'rin degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, “mehmon joyi ko'z ustida” deyilganda mehmonning o'rni yoki unga berilayotgan hurmat eng yuqori darajada ekanligi metaforik tarzda ifodalanadi. Bu tinglovchining miyasida mehmonning qadr-qimmatini baland degan tasavvurni hosil qiladi. Shu munosabat bilan maqolning ma'nosi va ta'siri mazkur vaziyatga bog'liq. Bu maqol o'zbek xalqining mehmondo'stlik an'analari bilan bevosita bog'liq. Mehmondo'stlik milliy qadriyatlarimizda mehmonning qadrliligi, unga eng yaxshi

narsa va joylarni taqdim etish muhim o‘rin tutadi. Maqol shu madaniy qadriyatni aks ettiradi va mustahkamlaydi. Maqolning asosiy kommunikativ maqsadi – mehmonlarga hurmat ko‘rsatish, ularga yuqori “xizmat” ko‘rsatish va shu orqali uy egasining mehmondo‘stligini, xushmuomaliligini va har bir xalqning madaniyatini namoyon etish bilan birga “Mehmon joyi ko‘z ustida” ekanligi u shunchaki “mehmonni yaxshi joyga qo‘yish kerak” degan ma‘noni emas, balki madaniy qadriyatlarga asoslangan, hurmat va e‘zozga chaqiruvchi, tinglovchida tegishli his-tuyg‘u va qarashlarni shakllantiruvchi nutq harakatini ifodalaydi. U ma‘lum bir madaniy kontekstda uy egasining munosabatini va mehmonning maqomini ko‘rsatib beradi.

**Mehmonlarning xosiyati haqidagi maqollar:** Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan. Mehmon – uyning ziynati. Mehmon kelgan uyning chirog‘i ravshan.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining hayotiy tajribasi va kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan” maqoli chuqur falsafiy va semantik ma‘no, o‘ziga xos grammatik tuzilish va boy pragmatik xususiyatlarga ega. Ushbu maqol o‘zbek mehmondo‘stlik an‘analarining nafaqat ijtimoiy-axloqiy, balki oddiy hayot turmush tarzi bilan bog‘liq holda aks etadi. “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan” maqoli grammatik jihatdan parallel tuzilishga ega bo‘lgan ikki mustaqil sodda gapning qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, ularning birikishi uslubiy effekt yaratadi. Ikkala gap ham egali gap bo‘lib, kesimlar bir xil *-ar* qo‘shimchali hozirgi-kelasi zamon shaklida kelgan fe‘llardan iborat. Bu shakl hodisaning doimiyligini, takroriylikni yoki umumiy qonuniyat ekanligini ifodalaydi. Ushbu maqol ikki qismdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro mazmuniy ziddiyatli joylashuvga ega, ammo umumiy ma‘noda bir-birini to‘ldiradi va chuqur hikmatni ifodalaydi. Ikki gapning bir xil sintaktik va morfologik tuzilishi maqolga o‘ziga xos ritm va ohang beradi. Bu parallelizm maqolning esda qolishiga asos bo‘ladi.

“Rizqi kelar teshikdan” qismi maqolning eng asosiy mazmunga ega qismi. “Rizq” tushunchasi Islom madaniyatida Alloh taolo tomonidan beriladigan nasiba, tirikchilik manbayi, moddiy va ma‘naviy ne‘matlarni anglatadi. “Teshikdan” so‘zi esa “eshikdan” ga nisbatan noan‘anaviy, kutilmagan, kichik va ko‘zga tashlanmaydigan yo‘lni bildiradi. Bu yerda “teshik” so‘zi metaforik ma‘noda, Allohning rizqi kutilmagan joylardan yetib kelishini anglatadi. Bu o‘zbek xalqining ahil qo‘shnichiligi, ularning o‘zaro bir-birlarini so‘rab turishlari, mehmon kelganda uylaridan “nimadir” olib chiqishlari qadriyatlarimizga singib ketgan. Maqoldagi “teshik”dan kelishiga, ya‘ni qadimda qo‘shnilarning o‘rtasida kichik darcha, “teshik joy” orqali bordi-keldi qilishlariga ishora. Uy egasining mehmon tufayli moliyaviy yoki moddiy qiyinchiliklarga tushishi haqidagi xavotirlarini yo‘qqa chiqaradigan va uyalib qolmasliklariga asos hisoblangan jarayon.

**Mehmonlarni “mehmon qilish” jarayoni bilan bog‘liq maqollar.** Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush. Mehmonni siylagan itiga suyak tashlar.

“Mehmonni siylagan itiga suyak tashlar” maqoli o‘zbek tilining boy xazinasidan o‘rin olgan bo‘lib, u mehmondo‘stlik madaniyatining muhim jihatlari ifodalaydi. Maqol o‘zbek madaniyatining eng asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lgan mehmondo‘stlikni ta’kidlaydi. Mehmonni ulug‘lash, unga yaxshi munosabatda bo‘lish – bu jamiyat tomonidan yuqori baholanadigan va rag‘batlantiriladigan harakatdir.

Maqollar ma’noni kuchaytiradi, argument sifatida ishlaydi, xulosalar chiqaradi, turli nutq harakatlarini bajaradi va madaniy me’yorlar asosida tinglovchiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maqollarni o‘rganish tilshunoslik, lingvopragmatika, diskurs tahlili, lingvopragmatika va madaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolning pragmatik tahlili uning kommunikativ maqsadlarini, nutq harakatlarini va kontekstual ta’sirini yoritib beradi. Maqolning asosiy pragmatik kuchi – mezbonning qanday inson, ya’ni saxovatli, mehmondo‘st ekanligini yoki aksini anglatish bilan belgilanadi. U mezbonni mehmonga nisbatan yaxshi muomala qilishga, uni hurmatlashga va e’zozlashga undaydi. Bu yerda “itiga suyak tashlar” iborasi mehmondo‘stlik ko‘rsatgan mezbonning o‘zi ham biror narsa bilan mukofotlanishi, unga yaxshilik qaytishi mumkinligi haqidagi g‘oyani bildiradi. Bu mukofot moddiy bo‘lishi shart emas, balki ma’naviy (minnatdorlik, yaxshi nom qozonish) ham bo‘lishi mumkin. Mezbon bu maqolni eshitganida o‘zining mehmondo‘st harakatlarini yanada chuqurroq anglab yetishi, o‘zini yaxshi his qilishi, mehmondo‘stlikdan zavqlanishi mumkin. Bu esa o‘zaro hurmat va yaxshi munosabatlarni mustahkamlaydi.

**Menmonga kelish va ketish haqidagi maqollar.** Erta borsang, et pishar. Kechga qolsang, bet pishar. Mehmon oz o‘tirsam ham, ko‘p sinar. Oyda kelganga – oyoq, Kunda kelganga – tayoq. Mehmonning ketishini so‘rama, Kelishini so‘ra. Ushbu maqollarning barchasi xalqning sinovidan o‘tgan, turmush tarzi bilan “qorishib” ketgan va nutqiy jarayonlarda bevosita qo‘llanadigan birliklardir. “Maqol nutq akti sifatida qo‘llanilishi va nusxaning shaxsiy-temporal nuqtayi nazarga kiritilishi orqali mikro-dialogda aktuallashtiriladi”. Bu esa xalqning nutqiy stereotipi sifatida baholanadi. “Stereotip – bu muayyan madaniy guruh tomonidan qabul qilingan, standartlashgan, takrorlanuvchi fikr, obraz yoki nutq shaklidir”.

1. Maqollar odatda o‘zining sintaktik va leksik tuzilishini o‘zgartirmaydi. Ularning shakli (forma) ko‘p yillar davomida saqlanib qoladi, unga kamdan kam hollarda o‘zgartirish kiritiladi. Bu esa ularni muayyan vaziyatlarda bir xil tarzda qayta-qayta ishlatish imkonini beradi.

2. Stereotip birlik sifatida maqollar turli xil dialogik vaziyatlarda, turli odamlar tomonidan, turli vaqtlarda takrorlanib ishlatiladi. Bu ularning xalq tilida keng tarqalganligi va umumiy tushunarli ekanligini ko‘rsatadi.

3. Stereotiplar ma’lum bir kontekstga mos kelgandagina samarali bo‘ladi. Maqol ham ma’lum bir hayotiy vaziyatga to‘g‘ri kelgandagina o‘z ma’nosini to‘liq ochadi. Shuning uchun uning qo‘llanilishi ma’lum bir kontekstga xoslangan bo‘ladi.

4. Maqollarning pragmatik qiymati ular nutq jarayonida, ayniqsa dialoglarda qanday funksiyalarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar ko'pincha "yashirin" bo'lib, tinglovchi tomonidan faol talqin qilinishini talab qiladi.

5. Maqol qo'shilgan matn oddiygina bayon qilinayotgan fikr yanada chuqurlashadi, umumlashtiriladi va donolik bilan boyitiladi. U oddiy bayonotni umumiy haqiqat darajasiga ko'taradi.

6. Maqol, ayniqsa, bahs-munozara yoki tortishuvlarda kuchli argument sifatida ishlatiladi. U o'z fikrini isbotlash uchun umumiy, xalq tomonidan tan olingan haqiqatga murojaat qilishni bildiradi.

7. Ko'pincha suhbatning oxirida yoki biror hodisa ta'riflangandan so'ng, maqol orqali asosiy xulosa chiqarilishi mumkin. U muhokamani yakunlash va asosiy g'oyani umumlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

8. Maqol orqali turli nutq harakatlari amalga oshiriladi: Masalan, maslahat berish; ogohlantirish; hukm chiqarish/baholash, nasihat qilish kabi.

**Xulosa.** Shu boisdan ham maqollar, ko'pincha, to'g'ridan to'g'ri aytilishi mumkin bo'lmagan tanqid, maslahat yoki fikrni yumshoqroq, nozikroq tarzda bildirish imkonini beradi. Bu "chegara saqlash va andisha saqlash" deb ataluvchi pragmatik strategiyaning bir ko'rinishidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. – Toshkent: «Sharq», 2012. – B. 85.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani: O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 104.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2010. – B. 42.
4. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Вопр. яз-я. –1953. - № 5. - С. 21.
5. Е. А. Молодых. Коммуникативно-прагматическая роль фразеологизмов при трансляции языковой картины мира в Скотта. <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/lingvo/2010/02/2010-02-39>.
6. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. "O'qituvchi" nashriyoti, 1978. – 407 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 6 jildli. II jild. –B.500
8. Teliya V.N. Frazeologiya i kultura. – Moskva: Nauka, 1996.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 6 jildli. 1-jild. Toshkent, 2023. –B. 581.
10. Botir Zaripov; Nasiba Tursunova; Surayyo Muqumova; Nodira Mansurova; Sarvinoz Pulatova. *AIP Conf. Proc.* 3268, 060041 (2025) <https://doi.org/10.1063/5.0257460>